



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi	
Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	



TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH

Umarov Ravshanjon Gafurovich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: ravshanu424@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlar asosida sifatni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bugungi kunda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bunda xalqaro standartlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, xususan, ISO 21001 ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimi standarti, ESG talablari hamda xalqaro akkreditatsiya mexanizmlarining ta'lim xizmatlari sifatiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash bo'yicha ilg'or boshqaruv tajribalari o'rganilib, ularning samaradorligi baholandi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent tahlili va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari xalqaro standartlarni ta'lim xizmatlarini boshqarish tizimiga integratsiya qilish ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish darajasi hamda ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, sifatni ta'minlash, xalqaro standartlar, ISO 21001, ESG, sifat menejmenti, oliy ta'lim, akkreditatsiya, boshqaruv tizimi, ta'lim sifati.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of quality assurance in the management of educational services based on international standards. Improving the quality of educational services has become one of the key priorities in the development of higher education systems, where the implementation of international standards plays a crucial role. The study analyzes contemporary approaches to educational quality management, particularly the ISO 21001 Educational Organizations Management System standard, the ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area), and the impact of international accreditation mechanisms on the quality of educational services. Furthermore, advanced quality assurance practices implemented by higher education institutions in developed countries are examined, and their effectiveness is evaluated. The research methodology is based on a systems approach, comparative analysis, content analysis, and scientific generalization. The findings demonstrate that integrating international standards into the educational services management system contributes to improving educational quality, management effectiveness, stakeholder satisfaction, and the international competitiveness of higher education institutions.

Keywords: educational services, quality assurance, international standards, ISO 21001, ESG, quality management, higher education, accreditation, management system, educational quality.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты обеспечения качества управления образовательными услугами на основе международных стандартов. Повышение качества образовательных услуг в настоящее время является одним из приоритетных направлений развития системы высшего образования, при этом внедрение международных стандартов приобретает особое значение. В исследовании проанализированы современные подходы к управлению качеством образования, в частности стандарт ISO 21001 «Система менеджмента образовательных организаций», требования ESG (Стандарты и рекомендации по обеспечению качества в Европейском пространстве высшего образования), а также влияние механизмов международной аккредитации на качество образовательных услуг. Кроме того, изучены передовые практики обеспечения качества в высших учебных заведениях развитых стран и дана



оценка их эффективности. В качестве методологии исследования использованы системный подход, сравнительный анализ, контент-анализ и методы научного обобщения. Результаты исследования показали, что интеграция международных стандартов в систему управления образовательными услугами способствует повышению качества образования, эффективности управления, уровня удовлетворённости заинтересованных сторон и международной конкурентоспособности высших учебных заведений.

Ключевые слова: образовательные услуги, обеспечение качества, международные стандарты, ISO 21001, ESG, менеджмент качества, высшее образование, аккредитация, система управления, качество образования.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim xizmatlari sifati mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, inson kapitalini shakllantirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biriga aylandi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng kirib kelishi hamda mehnat bozorining malakali mutaxassislarga bo'lgan talabi ortib borayotgan sharoitda oliy ta'lim muassasalari oldiga ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro talablar asosida tashkil etish vazifasi qo'yilmoqda. Bunday sharoitda ta'lim xizmatlarini boshqarish tizimini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish hamda xalqaro sifat standartlarini amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlash ISO 21001 ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimi standarti, Yevropa oliy ta'lim hududida sifatni ta'minlash standartlari va yo'riqnomalari (ESG), xalqaro institutsional va ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazish talablari hamda uzluksiz takomillashtirish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu standartlar ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini inobatga olish, ta'lim jarayonlarini tizimli boshqarish, ichki va tashqi sifatni baholash mexanizmlarini rivojlantirish hamda ta'lim natijalarini doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari mazkur standartlarni boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida qo'llab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini kengaytirish va oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim xizmatlari sifatini boshqarishda raqamlashtirish, ichki sifatni nazorat qilish tizimini rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro standartlarni oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimiga kompleks joriy etish, sifatni baholash indikatorlarini takomillashtirish va uzluksiz monitoring mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlar asosida sifatni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari ta'lim xizmatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, sifatni ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish, xalqaro akkreditatsiya talablariga muvofiqlikni oshirish va oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim xizmatlarini boshqarishda sifatni ta'minlash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Xorijiy olimlardan Edward Sallis ta'lim sifatini boshqarishda umumiy sifat menejmenti tamoyillarini qo'llash ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishini asoslab bergan¹. Robert M. Garrett oliy ta'lim muassasalarining xalqaro rivojlanishi va sifatni boshqarish tizimlari ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlagan². Rosa M. Vasconcelos esa ISO 21001 standarti ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz rivojlanishni ta'minlashini ilmiy jihatdan asoslagan³.

1 Sallis, E. (2014). Total Quality Management in Education (3rd ed.). Routledge.

2 Garrett, R. M. (2016). The Future of International Higher Education. University of California Press.

3 Vasconcelos, R. M. (2021). ISO 21001:2018 and educational organizations: A management perspective. Springer.



MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim sifatini boshqarishning institutsional mexanizmlari va xalqaro standartlarning amaliy ahamiyati keng yoritilgan. V. I. Baydenko oliy ta'lim sifatini ta'minlashda Yevropa tajribasining ahamiyatini asoslagan⁴. A. I. Subetto ta'lim sifatini boshqarishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqqan⁵. V. D. Shadrikov ta'lim sifati ko'rsatkichlarini baholash hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni taklif etgan⁶.

O'zbek olimlari ilmiy ishlarida ham oliy ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. R. H. Ayupov oliy ta'limni raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan⁷. U. Begimqulov ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan⁸. Sh. Qurbonov oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruvni takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritgan⁹.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlar asosida sifatni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda tizimli yondashuv metodologiyasi asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik asosini ta'lim sifati, sifat menejmenti, xalqaro standartlar va oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligiga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida ta'lim xizmatlarini boshqarish tizimining tarkibiy elementlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilib, xalqaro standartlarning boshqaruv jarayonlariga ta'siri kompleks ravishda baholandi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, kontent tahlili hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil usuli orqali mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Sintez usuli yordamida olingan ilmiy qarashlar o'zaro uyg'unlashtirilib, ta'lim xizmatlarini boshqarishda sifatni ta'minlashning yaxlit mexanizmi shakllantirildi. Qiyosiy tahlil usuli rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimlarida sifatni ta'minlash bo'yicha qo'llanilayotgan boshqaruv amaliyotlarini O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslash imkonini berdi. Xalqaro standartlar mazmuni, sifatni baholash mezonlari hamda boshqaruv talablarining asosiy yo'nalishlari o'rganildi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar ilmiy asoslangan mezonlar asosida tizimlashtirildi, ularning o'zaro bog'liqligi baholandi hamda xalqaro standartlarning ta'lim xizmatlarini boshqarish tizimiga ta'siri aniqlandi. Olingan ilmiy xulosalar asosida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash tizimini xalqaro talablar darajasida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash, ilmiy xulosalarning asoslanganligini oshirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlardan foydalanish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirishda muhim natijalarga erishilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Finlyandiya, Singapur va Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimlarida sifatni boshqarish xalqaro talablar asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda ta'lim jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish, manfaatdor tomonlarning fikrini muntazam inobatga olish hamda ichki va tashqi baholash mexanizmlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur yondashuvlar ta'lim xizmatlari sifati, boshqaruv samaradorligi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Finlyandiya oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash tizimi Ta'lim sifatini baholash milliy markazi (FINEEC) faoliyati orqali muvofiqlashtiriladi. Universitetlarda ichki sifatni ta'minlash tizimi muntazam ravishda tashqi ekspertlar tomonidan baholanadi hamda ta'lim dasturlari doimiy ravishda takomillashtirib boriladi. Natijada Finlyandiya oliy ta'lim muassasalarining 95 foizdan ortig'i xalqaro sifat talablariga javob beruvchi ichki sifat tizimiga ega bo'lib, mamlakat dunyoning eng sifatli ta'lim tizimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur

4 Байденко, В. И. (2010). Болонский процесс: проблемы, опыт, решения. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.

5 Субетто, А. И. (2008). Качество образования: теория и практика. Санкт-Петербург: Астерион.

6 Шадриков, В. Д. (2013). Качество педагогического образования. Москва: Логос.

7 Ayupov, R. H. (2020). Raqamli iqtisodiyot va elektron ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot.

8 Begimqulov, U. Sh. (2017). Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.

9 Qurbonov, Sh. (2019). Oliy ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy yo'nalishlari. Toshkent: O'zbekiston.



yondashuv ta'lim xizmatlarini boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik va uzluksiz rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda¹⁰.

Singapur oliy ta'lim tizimida xalqaro standartlar asosida sifatni ta'minlash universitetlarning strategik rivojlanish dasturlarining ajralmas qismi hisoblanadi. National University of Singapore va Nanyang Technological University kabi yetakchi universitetlarda ta'lim dasturlari muntazam ravishda xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilib, ta'lim sifati ichki va tashqi baholash mexanizmlari orqali nazorat qilinadi. Natijada Singapur universitetlarining aksariyati QS World University Rankings reytingining Top 100 ro'yxatidan o'rin olgan bo'lib, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi 90 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu esa xalqaro standartlarning ta'lim xizmatlari sifatini oshirishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi¹¹.

Buyuk Britaniyada oliy ta'lim sifati Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi (QAA) tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanadi. Universitetlarda ichki sifatni boshqarish tizimi ta'lim dasturlarini muntazam monitoring qilish, talabalarining fikr-mulohazalarini o'rganish va mustaqil ekspertlar ishtirokida tashqi baholashni o'z ichiga oladi. Natijada Buyuk Britaniya universitetlarining 80 foizdan ortig'i xalqaro reytinglarning yuqori pog'onalaridan o'rin egallab, ta'lim xizmatlari sifati bo'yicha yetakchi davlatlar qatoridan joy olgan. Sifatni ta'minlash tizimining izchil ishlashi boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda¹².

Rivojlangan davlatlar tajribasi ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlardan foydalanish oliy ta'lim muassasalarining institutsional salohiyatini mustahkamlash, ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini to'liq qondirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini namoyon etadi. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga bosqichma-bosqich tatbiq etish ichki sifatni ta'minlash tizimini takomillashtirish, xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini kengaytirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlardan foydalanish oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etgan davlatlarda ta'lim jarayonining shaffofligi, boshqaruvning samaradorligi hamda manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Shu bois sifatni ta'minlash faqat ta'lim dasturlarini baholash bilan cheklanmasdan, balki strategik rejalashtirish, inson resurslarini boshqarish, ta'lim jarayonlarini monitoring qilish va uzluksiz takomillashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Finlyandiya, Singapur va Buyuk Britaniya tajribasi xalqaro standartlarning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu davlatlarda sifatni ta'minlash tizimi ichki va tashqi baholash mexanizmlarining uyg'unligi, manfaatdor tomonlar ishtiroki hamda boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish tamoyiliga tayanadi. Natijada oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va ta'lim xizmatlari sifatini doimiy ravishda yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.


O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda va oliy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarish tizimi izchil institutsional rivojlanib bormoqda. Xususan, ichki sifatni baholash mezonlarini xalqaro talablarga moslashtirish, ta'lim dasturlarini muntazam yangilab borish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda ish beruvchilar va talabalar fikrini boshqaruv qarorlariga kengroq integratsiya qilish yo'nalishida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa xalqaro standartlarning amaliy mexanizmlarini milliy oliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich va samarali moslashtirishga xizmat qilmoqda.

Ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlardan samarali foydalanish oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv sifatini oshirish, ta'lim natijalarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, xalqaro akkreditatsiya jarayonlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish hamda oliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni izchil amalga oshirish O'zbekistonda sifatga yo'naltirilgan boshqaruv madaniyatini shakllantirish va ta'lim xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

10 Saarinen, T., & Ala-Vähälä, T. (2007). Accreditation, the Bologna Process and national reactions: Accreditation as concept and action. *Higher Education in Europe*, 32(4), 333–345. <https://doi.org/10.1080/03797720802066281>

11 Mok, K. H. (2010). When East meets West: The internationalization of higher education in Singapore. *Higher Education*, 59(4), 469–486. <https://doi.org/10.1007/s10734-009-9253-3>

12 Harvey, L., & Green, D. (1993). Defining quality. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 18(1), 9–34. <https://doi.org/10.1080/0260293930180102>



1-rasm. Xalqaro tajribalarni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bosqichlari¹³

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim xizmatlarini boshqarishda xalqaro standartlar asosida sifatni ta'minlash oliy ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi, ta'lim sifati va boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar va rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga asoslangan sifat menejmenti tizimini joriy etish ta'lim jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlash hamda ta'lim xizmatlarini uzluksiz takomillashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv oliy ta'lim muassasalarining



xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va ta'lim sifatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Finlyandiya, Singapur va Buyuk Britaniya tajribasi shuni tasdiqlaydiki, sifatni ta'minlash tizimining samaradorligi faqat xalqaro standartlarni joriy etish bilangina emas, balki ularni boshqaruvning barcha bosqichlariga integratsiya qilish, ichki va tashqi baholash mexanizmlarini uyg'unlashtirish hamda ta'lim jarayonlarini muntazam monitoring qilish orqali ta'minlanadi. Mazkur yondashuv ta'lim muassasalarida resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv faoliyatining natijadorligini oshirish va ta'lim xizmatlari sifatini doimiy ravishda rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro standartlarni amaliyotga keng tatbiq etish bo'yicha muayyan islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, sifatni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va oliy ta'lim muassasalarining institutsional salohiyatini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ichki sifatni ta'minlash tizimining samaradorligini baholash, ta'lim dasturlarini muntazam takomillashtirib borish, professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ish beruvchilar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirish ta'lim xizmatlari sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro standartlarga asoslangan yagona ichki sifatni ta'minlash modelini joriy etish. Mazkur model ISO 21001 ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimi standarti hamda Yevropa oliy ta'lim hududida sifatni ta'minlash standartlari va yo'riqnomalariga muvofiq ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Model tarkibiga ta'lim dasturlarining sifati, professor-o'qituvchilar faoliyati, talabalar qoniqish darajasi, bitiruvchilarning bandligi, ilmiy faoliyat samaradorligi va boshqaruv natijadorligini baholovchi aniq ko'rsatkichlar kiritilishi zarur. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlar asosida har yili ichki audit o'tkazish, natijalarni raqamli platformalar orqali monitoring qilish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Bu ta'lim xizmatlari sifatini doimiy ravishda nazorat qilish va uzluksiz takomillashtirish imkonini yaratadi.

2. Xalqaro sifat standartlarini amaliyotga joriy etishni qo'llab-quvvatlaydigan institutsional rivojlanish dasturini ishlab chiqish. Ushbu dastur doirasida oliy ta'lim muassasalarining rahbar va professor-o'qituvchilari uchun xalqaro sifat menejmenti, ta'lim dasturlarini akkreditatsiyaga tayyorlash, ichki va tashqi baholash tizimlari hamda strategik boshqaruv bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirish, tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish, xalqaro ekspertlarni sifatni baholash jarayonlariga jalb etish hamda xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim dasturlari ulushini bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sallis, E. (2014). Total Quality Management in Education (3rd ed.). Routledge.
2. Garrett, R. M. (2016). The Future of International Higher Education. University of California Press.
3. Vasconcelos, R. M. (2021). ISO 21001:2018 and educational organizations: A management perspective. Springer.
4. Байденко, В. И. (2010). Болонский процесс: проблемы, опыт, решения. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.
5. Субетто, А. И. (2008). Качество образования: теория и практика. Санкт-Петербург: Астерион.
6. Шадриков, В. Д. (2013). Качество педагогического образования. Москва: Логос.
7. Ayupov, R. H. (2020). Raqamli iqtisodiyot va elektron ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot.
8. Begimqulov, U. Sh. (2017). Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Qurbonov, Sh. (2019). Oliy ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy yo'nalishlari. Toshkent: O'zbekiston.
10. Saarinen, T., & Ala-Vähälä, T. (2007). Accreditation, the Bologna Process and national reactions: Accreditation as concept and action. Higher Education in Europe, 32(4), 333–345. <https://doi.org/10.1080/03797720802066281>
11. Mok, K. H. (2010). When East meets West: The internationalization of higher education in Singapore. Higher Education, 59(4), 469–486. <https://doi.org/10.1007/s10734-009-9253-3>
12. Harvey, L., & Green, D. (1993). Defining quality. Assessment & Evaluation in Higher Education, 18(1), 9–34. <https://doi.org/10.1080/0260293930180102>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>